




QASHQADARYO VILOYATINING QURILISH PUDRAT ISHLARI

(2019 yil yanvar)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar oyida qilish pudrat ishlari 260,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,5 %ni tashkil etdi. Shu jumladan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari jami qurilish ishlari xajmining 21,4 % foizini tashkil qildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari xajmining 47,4 %i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,9 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 31,2 % ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qilish pudrat ishlari hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida qurilish pudrat ishlarining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qarshi sh, Shahrisabz sh va Kitob tumanlarida qayd etildi.


Quilish pudrat ishlari o`shish sur`atlari, (%)



Quilish pudrat ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 55,7 mlrd.so'mni yoki jami qurilish ishlari xajmining 21,4 % foizini, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 200,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining qilish pudrat ishlari hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 204,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 3,0 %ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami qurilish pudrat ishlaridagi ulushi 78,6 %ga teng kelmoqda.


Quilish pudrat ishlaritarkibi, (%)



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
qurilish pudrat ishlaridagi hajmi**


	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	55,7	195,8	204,5	104,0
Qarshi sh	11,1	207,0	49,7	102,9
Shahrisabz sh	6,9	149,0	7,8	104,2
<i>tumanlar:</i>	-	-	-	-
G`uzor	1,8	110,9	9,2	105,5
Dehqonobod	-	-	7,5	104,7
Qamashi	-	-	5,1	103,5
Qarshi	0,1	110,9	22,0	103,3
Koson	33,7	318,2	14,6	104,3
Kitob	0,2	110,9	15,1	104,0
Mirishkor	-	-	7,1	105,1
Muborak	1,3	23,4	11,1	103,8
Nishon	0,6	116,7	4,1	104,6
Kasbi	-	-	10,1	104,8
Chiroqchi	-	-	20,5	104,0
Shahrisabz	-	-	7,3	104,1
Yakkabog`	-	-	13,3	106,0

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyatda qurilish pudrat ishlari hajmidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar oyida qilish pudrat ishlari hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi quyidagi tumanlarda nisbatan yuqori Dehqonobod, Qamashi va Qarshi tumanlarida qayd etildi. Kichik tadbirkorlikning eng past ulushi esa Koson tumani hamda Shahrisabz shahriga to'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi
(mlrd.so'm)**




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari va kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi 75,5 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlari qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari va kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi 7,3 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida esa jami qurilish ishlarining 17,2 % qilmoqda va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 % punktga oshmoqda.

**Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari
jamiga nisbatan ulushi % da**



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 252,9 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,2 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 7,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 2,8 foizini tashkil qildi.



**Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi:**

Tel.:75-221-32-47
71-230-83-97 (98)